O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI

QARORI

220400, Tuproqqal’a tumani, Pitnak shahri, Mustaqillik ko’chasi, 1-uy, tel:30-54-678, faks: 30-53-315

2022 - yil 16 - fevral VI-51-36-12-218-K/22 Tuproqqal'a tumani hokimligi

Tuproqqal’a tumanida yangidan tashkil qilingan uchta nomsiz mahallani nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyeklarning nomlash to‘g‘risidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-14-875-sonli va tuman hokimligining mahallalarga nom berish, ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert kommisiyasining 2021-yil 29-noyabr 01-14-875-sonli xulosasi va tuman hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi”ning tumandagi uchta yangi tashkil qilingan geografik obyektni nomlash, qayta nomlash va ularning nomini o‘zgartirish to‘g‘risidagi 2021-yil 29-noyabr 01-14-875-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

2. Tumanda yangi tashkil qilingan uchta mahallaning yangi nomlari ro‘yxati

ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (M.Satimov), tuman qurilish bo‘limi (J.Abbazov), tuman hokimligi bilan birgalikda yangi nomlangan uchta mahallani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (J.Abbazov) hududlardagi uchta mahallaning yangi nomlari yozilgan ko‘rsatgich belgilar, peshlavhalarini zamonaviy dizayin asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror matbuotda rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, xotin-qizlar va yoshlar masalalari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda ishlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Matkarimov), Xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Ibragimov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **А.Салаев**

Халқ депутатлари Тупроққалъа
туман Кенгашининг
2022 йил 16 февралдаги
VI-51-36-12-218-K/22-сон қарорига
1-илова

Tuproqqal’a tumanida yangidan tashkil qilingan 3 ta nomsiz mahallalarning ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Mahalla	Pitnak shahri	Nomsiz	Nurobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Mahalla	Pitnak shahri	Nomsiz	Yakkachiqir	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Mahalla	Pitnak shahri	Nomsiz	Yangizamin	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq